


## **2019-yilning yanvar-iyul oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2 trln. 124,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 105,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 0,5 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 6,6 % ga o'sishi hisoblanadi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (97,1 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (93,1 %) pasaydi.

### **2019-yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**



### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 122,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan chaqiq tosh – 68,9 % ga, ko'mir qazib olish - 18,7 % ga, osh tuzi – 1,8 martaga oshdi, xom neft (95,8 %) pasaygan.



### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2018-yil yanvar-iyulida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-iyulida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
---	--	---	--------------------------

#### **Ko'mir, ming t.**

100,4



119,2

118,7



#### **Neft, ming t.**

50,1



48,0

95,8



2018-yil yanvar-iyulida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyulida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

**Osh tuzi, ming t.**

3,3



5,9

1,8m



**Qum, ming t.**

21,2



23,1

109,2



**Chaqiq tosh, ming t.**

21,7




36,7


1,7m




**Neft qazib olish, ming t.**



### **Ko'mir qazib olish, ming t.**



### **Chaqiq tosh qazib olish, ming t.**





### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2019-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 trln. 831,4 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,2 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,2 % ni (2018-yil yanvar-iyul oylarida - 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,4 % ni (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 26,7 % (23,8 %) ni va quyi texnologiyali - 58,9 % (62,1 %) ni tashkil etdi.






**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha  
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 7,0 % (2018-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish 110,8 %) ni, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 36,3 % (111,1 %) ni, yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 3,3 % (104,5 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 28,4 % (98,2 %) ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,4 % (99,6 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar - 4,7 martaga, quyish uchun tayyor beton - 1,6 martaga, osh tuzi 1,8 martaga, un - 7,7 % ga, neft bitumi - 4,8 % ga, don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar - 6,5 % ga oshdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-iyulida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyulida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
37,3	<b>Paxta tolasi, ming t.</b> 	7,1	19,0 ↓
0,0	<b>Tozalangan kungaboqar yoki masxar yog'i, ming t.</b> 	80,9	- ↑
60,4	<b>Un, ming tn</b> 	65,1	107,7 ↑
1001,7	<b>Aroq, ming l.</b> 	760,3	75,9 ↓
7,4	<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b> 	6,6	88,7 ↓







**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 131,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,2 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish

va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,5 % ga oshganligi kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-iyulida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyulida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
0,0	<p><b>Elektroenergiya, mln.kVt/s</b></p> 	1,8	- ↑
52,0	<p><b>Issiqlik energiyasi, ming Gkal</b></p> 	37,3	71,7 ↓

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va  
utilizatsiya qilish.**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 38,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 56,7 % ga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 33,6 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari - 2,7 % ga oshganligi, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar (90,6 %), tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo (ikkilamchi xom ashyo materiallari) (87,1 %) kamayganligi kuzatildi.

**Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish  
va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-iyulida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-iyulida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	--	---	----------------------

**Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna**

9,3



8,1

87,1



**Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish  
bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm**

2,6



2,4

90,6






### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 821,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 5,6 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 38,7 % ni tashkil etdi.

### 2019-yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati




2018-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 50,4 % dan 2019-yilning yanvar-iyul oylarida 51,0 % ga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 49,6 % dan 49,0 % ga pasayganligi kuzatildi.

### ***Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi***

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 463,3 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 21,8 % ni tashkil etdi.


**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %**



**Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**


Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,4 %), Jarqo'rg'on (23,8 %), Denov (11,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda

**2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarishning o'sishi 2018-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan %**



Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Denov (iste'mol tovarlari hajmida 21,4 %), Sho'rchi (13,1 %) tumanlari va Termiz shahri (15,1 %) da ishlab chiqarildi.

**2019-yil yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sishi ko'rsatkichlari**




**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1055,4 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 49,7 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Boysun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Uzun (98,1 %) va Termiz (87,9 %) tumanlarida kuzatildi

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Sherobod (30,1 %), Jarqo'rg'on (32,8 %), Sho'rchi (39,7 %) tumanlari va Termiz shahrida (38,4 %) kuzatildi.

**2019-yilning yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**



**Sanoat statistikasi bo'limi**  
Aloqa telefoni: (76) 223-07-24